

O‘TKIR HOSHIMOV HIKOYALARIDA ANTONIMLARNING QO‘LLANILISHI

Mahkamova Gulhida

Namangan davlat universiteti

Filologiya fakulteti

Lingvistika: o‘zbek tili 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Mazkur tadqiqot ishida O‘.Hoshimov hikoyalarida uchraydigan hikoyalarning leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: antonimlar, kontekstual antonimiya, kontrar antonimlik, component antonimlar, leksik-semantik yahlil.

Qarama-qarshilik antik davrlardanoq faylasuflar e’tiborini o‘ziga jallb etib kelgan kategoriya sifatida xarakterlanadi. Sokrat, Platon, Aristotel, Protagor, Demokrit kabi faylasuflarning ilmiy qarashlarida bu kategoriya turlicha talqin etib kelingan²⁴. ¹ Ayniqla, Aristotelning qarama-qarshilik haqidagi ilmiy qarashlari alohida e’tiborga molik. T.F.Chursunova Aristotelning falsafiy qarashlariga baho bera turib, shunday deydi: «Antonimiyaning o‘rganilishi qadimgi yunon faylasufi Aristoteldan boshlangan»².

“Antonimlar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning deyarli barchasida mazkur hodisa bir so‘z turkumi doirasida mavjud deb qaralgan. Ammo leksik birliklardagi qarama-qarshilikning ifodalanishi turli turkum doirasida ham kuzatilishi ayni haqiqat. Aytish mumkinki, antonimik holat leksik birliklar semantikasidagi qarama-qarshi semalarining reallashishi uchun eng qulay sharoit hisoblanadi. Chunki bunday

¹ Bu haqida qarang: Д.Абдуллаева. Ўзбек тилида антисемия Филол. фанлари номзоди дис...автореф. -Тошкент, 2010. 5-бет.

² Bu haqida qarang: Д.Абдуллаева. Ўзбек тилида антисемия Филол. фанлари номзоди дис...автореф. -Тошкент, 2010. 5-бет.

vaziyatda mazkur qarama-qarshi semalardan boshqa barcha semalarning aynan bo‘lishi qarama-qarshilikni yanada yorqin ifoda etadi. Ammo leksik birliklarning semantik qarama-qarshiligidagi asos bo‘luvchi semalar doim ham ana shunday simmetrik holatda emas, asimmetrik holatda bo‘lishi ham juda ko‘p kuzatiladi. Masalan: *baland – past* leksemalarining antonimik munosabatiga ularning semantik tarkibidagi qarama-qarshi semalar («vertikal jihatdan o‘lchami yuqori» – «vertikal jihatdan o‘lchami quyi») asos bo‘lgan. Ushbu juftlik antonimiyaning mavjud mezonlariga to‘la javob beradi. Lekin ayni shu qarama-qarshi semalar *baland – pasaymoq, baland – pastlik* leksemalari o‘rtasida ham mavjud.

Tilshunoslikda antonimlar bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Ularning til sathlaridagi o‘rni, mohiyati, me’yor va vositalari o‘rganilgan. Kontekst tarkibida fakultativ tarzda yuzaga chiquvchi antonimlarni okkazional antonimlar sifatida baholash va ularning turli nutq uslublaridagi o‘ziga xos lingvostistik, semantik - ekspressiv xususiyatlarini o‘rganish, ularning paydo bo‘lish asoslarini tahlil etish rus tilshunoslari L.A.Vvedenskaya, G.E.Goncharenkolar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsada,¹ hozirgacha o‘zbek tilshunoslaring tadqiqot obyekti bo‘lmagan. Biz ushbu tadqiqot ishimizda zid ma’noli so‘zlarning O‘.Hoshimov asarlaridagi o‘rniga ham alohida to‘xtaldik.

O‘qimishli, oily ma’lumotli... “Madaniyat”lisining ahvoli shu bo‘lsa, boshqalardan o‘pkalanmasa ham bo‘ladi... Millioner-gadolar. (O‘zbeklar) Bu gapdagi “millioner” va “gado” so‘zleri leksik jihatda bir-biriga qarshilantirilgan.

U ketdi-yu, xayolimda ham shirin, ham achchiq, ham quvnoq, ham alamli uzuq-yuluq xotiralar qoldi... (Hayollarga bo‘laman tutqun)

Bir nutq vaziyatida bir nechta antonimlardan ustalik bilan foydalanish fikrning emotSIONAL-ekspressiv bo‘yog‘ini oshirib, qahramon hislari ifodasini ko‘zlangan darajaga olib chiqmoqda.

Hozir eng yaxshi fasl. Pushkin aytganidek, “ma’yus va go‘zal...” (O‘zbeklar 94-b). Bu so‘zlar odatda bir-biriga antonim emas, ammo adibning mahoratini

¹ Baydayeva G. Okkazional antonimlarni vujudga kelriruvchi obyektiv va subyektiv omillar// OёTA, 2010-y, 2-son, 92-b.

qarangki, Pushkinning bir she'ri orqali kuz faslini ham ma'yus va ham go'zal ekanligini kontekstual antonimiyani hosil qila olgan. Ma'lumki, zidlash munosabati kontekstual-situativ xarakterda ham bo'ladi. Antonimik munosabat nutq situatsiyasida, so'zlarni ma'lum kontekstda qo'llash orqali hosil bo'ladi. Bunday antonimlar kontekstual antonimlar deyiladi.

Ko'pincha badiiy asarda kontekstual antonimlardan tasvirning ta'sirchanligini oshirish maqsadida qo'llaydilar. Chunki unda lingvistik jihatdan noodatiylik kuchli bo'lib, ta'sir kuchi ularda odatdagilarga nisbatan kuchliroq bo'ladi. Hikoyalarni tahlil qilish jarayonida quyidagi antonimlarni ko'rib, tahlil qildik.

, „0'rtoqlar“ degan so'zdan tortib, „E'tiboringiz uchun rahmat“, deganigacha qog'ozdan o'qib berilarkan. (Qizil qarg'a).

Qahramon nutqining boshlanish va tugash nuqtasi bo'lgan bu ikki jumla ustalik bilan zid qo'yilgan-ki, gapni o'qigandayoq kontekstdan anglashilayotgan qarama-qarshilikni ilg'ab olish qiyin emas. Ushbu leksik birliklar o'rnida **“ipidan ignasigacha”** yoki shunga yondosh frazemani qo'llasa ham bo'lar edi, lekin bundan yozuvchining maqsadi to'laligicha ifoda etilmay qoladigandek, go'yo. Ya'ni bu ikki zid jumlaning qo'llanilishi qahramon nutqdagi tasvirning aniqlik, ochiqlik, bo'rtirilganlik darajasini ta'minlamoqda, nazаримизда. Shuningdek, quvonch va g'am semalari asosida antonimlik hosil qilayotgan quyidagi birliklarga e'tibor qaratamiz:

To'y maslahat bilan bo'ladi. O'lim bexosdan keladi (O'ldi-aziz bo'ldi). *To'y va o'lim* leksik birliklari mohiyati jihatdan, voqelik jihatidan ikki xil tushuncha. Chunonchi, to'y – o'yin-kulgi, o'lim – abadiy yo'qotish. Xalq tilimizning shunday imkoniyatlarini kash qiladiki, boshqa sayyoradan bo'lgan ikki so'zni ham bir-biriga antonim qiloladi, ham sinonim. Qari bobo-buvilarimiz tilidan eshitib qolamiz **“to'yimga kafanlik”** yoki katta yoshli momolar **“to'yim ham yaqin”** kabi gaplarni aytib qolishadi. Aslida *to'y* leksemasi orqali o'limni nazarda tutishayotgan bo'lishadi.

Antonim leksemalarning asosida borliqdagi qarama-qarshi hodisalarning in'ikosi bo'lgan qarama-qarshi tushunchalar yotadi. Antonim leksemalar bir turga

kiruvchi giponim leksemalardir: issiq-sovuq(harakat), katta-kichik(hajm), erkak-ayol (jins) va hokazolar.¹

Ko‘zları bir nuqtaga baqrayıb qolgan. Oqi bor, qorasi yo‘q!..(Ajdarning tavbasi)

Oyning o‘n beshi qorong‘u bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘ bo‘ladi, uka. Mana ko‘pi ketib, ozi qoldi. (Usta ko‘rgan shogird.)

Antonimlarning mantiqiy asosini ikki tur qarama-qarshilik tashkil etadi:

- a) kontrar qarama-qarshilik;
- b) komplementar qarama-qarshilik.

Kontrar qarama-qarshilik bu darajalanuvchi leksemalar qatoridagi tafovutlarning farqlarga, farqlarning ziddiyat, ya’ni qarama-qarshilikka o‘sib borishi natijasida birinchi a’zo bilan oxirgi a’zoning antonimlashuvidir. Masalan kichik-o‘rta-katta, yosh-o‘smir-o‘rta yosh-qari kabi. Bunda kichik va katta, yosh va qari leksemalari daraja qatorining ikki qarama-qarshilikda qator a’zolari o‘rtasida ikki antonim a’zo belgilarini o‘zida mujassamlashtirgan bog‘lovchi bo‘g‘in mavjud bo‘ladi. Yuqoridagi o‘rta leksemasida kichik va katta leksemalarining qarama-qarshiligi so‘nadi. Demak, leksemalarining kontrar qarama-qarshiligini ularning darajalanish (graduonimik) qatoridan izlash lozim.

Nima-nima? – Koryagin ijirg‘anib labini burdi. – Qilg‘ilikni sen qilgin-da, kampir-xotining oldida men javob beraymi? (O‘zbeklar)

Bu nutqiy parchada ikkala so‘z yosh, qari semalari ostida noodatiy tarzda qarshilantirilgan. Ayolning qarilik holatining tasvir bo‘yog‘ini *kampir* so‘zi orqali ko‘rishimiz mumkin.

Komplemetar antonimiyada qarama-qarshilik uchinchi, oraliq bo‘g‘insiz bo‘ladi: rost-yolg‘on, arzon-qimmat, oson-qiyin. Bu leksemalar orasida oraliq uchinchi leksemalar yo‘q.²

¹ U. Tursunov va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 1975.

² B. Mengliyev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Qarshi. 2004.

M: Samolyot shunaqangi yaqin bordiki, qanoti haykalning qo‘liga tegib ketay dedi.

*Shunda g‘alati ish bo‘ldi. Boyagi xotin **o‘ng** qo‘lidagi mash’alani olib, **chap** qo‘ltig‘iga qistirdi* (Said Ahmad safarda).

Mazkur misolda *o‘ng* va *chap* so‘zlari komplementar qarama-qarshilik munosabatida.

Bunday zid ma’nolarni barqaror birikmalarda, ya’ni iboralar va maqollarda ham ko‘plab uchratish mumkin. Yozuvchining tildan foydalanish mahoratini belgilashda badiiy nutq ifodalilagini qay darajada ta’minkay olganligiga e’tibor qaratiladi. Buni zid ma’noli so‘zlarini o‘z o‘rnida, muayyan estetik maqsad bilan qo‘llay olishidan ham aniqlasa bo‘ladi.

M: Kasallik filni pashsha qiladi. (Usta ko‘rgan shogird)

Dard degani botmonlab kelib, misqollab ketadi(O‘sha kitob)

Yumoristik hajv uchun xizmat qilgan mazkur barqaror birikmalardan foydalanish yozuvchidan katta mahoratni talab qiladi. Ikki parchadagi antonimlar biri hajm jihatidan(pashsha-fil), biri o‘lchov(botmon- misqol) ihatidan qarama qarshi tushuncha o‘laroq zidlanmoqda

Xullas, antonimlar bir-biriga zid tushunchalar birligini ifoda etish bilan tilda stilistik vosita sifatida qo‘llaniladi va badiiy ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi, badiiy nutq uslubining ravonligini ta’minkaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Jamolxonov X. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Toshkent. “Talqin”. 2005. 127-128-betlar.
2. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov X. O‘zbek tili stilistikasi. Toshkent. “O‘qituvchi” 1983. 56-58-betlar.
3. O‘. Hoshimov hikoyalari.